



ABDULLA AVLONIY ASARLARINING O'QISH DARSLARIDAGI AHAMIYATI

Buriyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi

+998886784664

shaxnozam@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk marifatparvar millat mayoqlaridan bo'lgan Abdulla Avloniyning asarlari boshlang'ich sinf o'qish darslarida ahamiyati tahlil qilinadi. Avloniy asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki axloqiy-tarbiyaviy mazmuni bilan ham o'quvchilarni ma'naviy shakllantirishda muhim rol o'yndaydi. Ularning o'qish darsliklariga kiritilishi bolalarning vatanparvarlik, odob-axloq, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada Avloniy asarlari orqali o'quvchilarga ta'lif berishning samarali usullari, ularni dars jarayonida qo'llash yo'llari va pedagogik ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya talqini, axloqiy qadriyatlar, insoniyatning rivojlanishi, asarlar tahlili, madaniyat, ilm, g'oyaviy to'liqlik, o'zbek pedagogikasi, milliy istiqlol

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ko'plab ilg'or mamlakatlarni ta'lif sohasidagi yutuqlari o'raganilib milliy dasturimiz bilan integratsiyalashgan holda amaliyotga tadbiq ettilmoqda. Xalqni ma'rifatli qilish uchun qayg'urgan jadidlar o'sha davrning turli johil, o'z manfaatlari yo'lida hech nimadan qaytmaydigan kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Xalqini savodli qilish uchun shirin jonlarini fido qilgan, butun umrlarini Vatanimiz ozodligi va



xalqimiz baxt-saodati yo‘lida sarf qilgan buyuk jadid ma’rifatparvarlarining ilmiyma’rifiy, adabiy-badiiy merosini o‘rganishimiz va kelajak avlodga o‘rgatishimiz davr talabidir. Zero, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan Uchinchi Renessans davrida jadidlar ilgari surgan ta’lim va tarbiya muammosi har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Abdulla Avloniy o‘zbek ma’rifatchilik harakatining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari hozirgi kunda ham o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Avloniy o‘z asarlarida ta’lim va tarbiyaning ahamiyatini, yosh avlodni vatanparvar, bilimdon va odobli inson qilib tarbiyalash zarurligini ta’kidlagan. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim dasturida o‘quvchilarga Vatan, ilm, do‘stlik va mehnat kabi mavzularda bilim berish muhim hisoblanadi. Avloniy asarlari shu jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni o‘rganadilar. Jumladan: “Turkiy guliston yoxud axloq” darslarda odob-axloq qoidalarini o‘rgatish uchun ishlatilishi mumkin. She’rlari va maqolalari orqali vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ilmga muhabbat singdiriladi. Hikoyalari o‘quvchilarga hayotiy tajribalar, insoniy fazilatlar haqida saboq beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ham Abdulla Avloniyning bir qancha she’rlari berib o‘tilgan bulardan, 2-sinf o‘qish darsligida “Yangi avlod” nomli she’ri va “Bolalari va pashsha” nomli masali berib o‘tilgan.

Bolari bilan pashsha” masali orqali mehnat qilish, yalqovlikdan qochish kerakligini bilib olishadi. Masal shunday berilgan:

Bir pashsha qir tarafdan uchib kelayotgan arini ko‘rib; qayerdan kelyapsan, deydi. Ari: bol, uy yasash uchun mum Pashsha: men kabi yasha Ari: Mashaqqatsiz taomda lazzat bo‘ladimi? Mening vaqtim yo‘q deya uchib ketadi. Xulosa shuki, mehnatning tagi rohat, yalqovlikning oxiri xorlikdir. O‘qituvchi bu masalni shunchaki o‘qitib qo‘ymasdan, uning zamirida yotgan tarbiyani o‘quvchiga bera olish talab qilinadi. Xulosani bolaga to‘g‘ri yetkazish talab qilinadi. Mavzuni o‘tishda masalni rollarga bo‘lib bolalar tomonida ijro yetgizdirib o‘tilsa samaraliroq bo‘ladi. Bolaning diqqati oshadi, masal ma’nosiga chuqurroq tushunadi. Shundan so‘ng bolalardan masal ma’nosiga mos misollar so‘raladi. Bunda o‘qituvchining o‘zi hayotiy misol keltirib



boshlab beradi. Bolalar davom ettirishadi. Bolalar masaldan, keltirilgan misollardan o‘zlariga xulosa chiqarishadi.

Ma’rifatparvarning quyidagi fikri bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi: “*Tarbiya biz uchun hayot yoki o’lim, najot yoki halokat, saodat yoki falokat masalasidir*”.

Bu so‘zlar XX asr boshlarida millatimiz uchun qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham, balki undan ham ortiqroq ahamiyatga ega. O‘z asarlarida Avloniy hukumatni yosh avlodning sog‘lig‘iga e’tibor qaratishga chaqiradi. Uning fikricha, insonning sog‘lom tafakkurga ega bo‘lishi va har tomonlama rivojlanishi uchun aql va tana sog‘lom bo‘lishi kerak.

U shuningdek, ota-onalarni farzandlari sog‘lig‘iga e’tibor qaratishga chaqirar, bolalarning fikriy tarbiyasi mas’uliyatini esa o‘qituvchilarga yuklar edi. “Bolalarda sog‘lom tafakkurni shakllantirish va ularni muntazam tarbiyalash – nihoyatda zarur va mas’uliyatl vazifadir. Chunki bolalarning aql kuchi, tafakkur kengligi va dunyoqarashi avvalo o‘qituvchiga bog‘liq”, – deb yozgan u “Ikkinci kitob” asarida. Avloniyning savodsizlikni yo‘qotishdagi roli 1920-yillarda Avloniy O‘zbekistonda savodsizlikni tugatish jarayonida faol ishtirok etdi. 1920-yildan boshlab u Respublika pedagogika bilim yurtiga, so‘ngra ayollar bilim yurtiga rahbarlik qildi. U O‘zbekiston xalq maorifi institutida, harbiy bilim yurtida dars berdi. 1924–1929-yillarda esa u o‘qituvchilik faoliyati bilan birga, O‘rtta Osiyo Davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) ilmiy tadqiqotlar olib bordi. San’at va teatrga bo‘lgan e’tibori Avloniy nafis san’atni juda qadrlagan. Uning fikricha, san’at taraqqiyatiga g‘oyalarni targ‘ib qilishning eng samarali vositalaridan biridir. U rahbarlik qilgan “Turon” teatr jamoasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (Otani o‘ldirgan) asari ilk bor sahnalashtirilgan. Bundan tashqari, Avloniy quyidagi sahna asarlarini yozgan:

- ✓ “Advokatlik osonmi?”
- ✓ “Pinaq” (Siyesta)
- ✓ “Biz va siz”
- ✓ “Ikki sevgi”



Bugungi kunda ham Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvar, mutafakkir va jurnalistning ilg'or g'oyalari tirik va dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda uning 130 yillik yubileyi keng nishonlanmoqda. Mamlakatimizdagi ko'plab ta'lismuassasalari buyuk pedagog nomi bilan atalmoqda. Abdulla Avloniy tajribali pedagog sifatida inson tarbiyasiga yoshligidan jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlagan. U bolaning tarbiyasi haqida shunday fikr bildirgan: "*Agar inson yoshligida ilmsiz va axloqsiz bo'lib ulg'aysa, undan yaxshilik kutish osmonga qo'l cho'zish bilan barobardir*". Bu kabi fikrlar orqali milliy qadriyatlarimiz ruhida bolalarni tarbiyalash dunyodagi yot illatlardan saqlab qoladi.

Sharq ta'lism-tarbiyasida ilmni targ'ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy prinsiplarga asoslangan, ta'limiyl-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o'xshashligi ular tayangan ma'naviy zaminga bog'liqdir. Shunday qimmatbaho asarlar ta'sirida yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiyl tarbiyaviy asardir. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining o'rni haqida fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, Ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kavidur", [3,2] — deydi. Uning fikricha bolalarga tarbiya berishni yoshlikdan boshlamoq kerak. Tarbiya jarayonida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni "bola tarbiyasining fanidir", deb ta'rif berdi. "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hamma birdek mas'ulyat bilan yondashishi kerakligini uqtiradi. "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kavidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdir" degan fikrlari bilan tarbiya qiluvchilarni ya'ni, ota-onas, muallimlar, tarbiyachilarni tabiblarga o'xshatadi. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur" degan fikrlari bilan esa tarbiya bir kishining ishi emasligi,



balki, butun jamiyatning ishi ekanligi, bu borada hamma birdek javobgar ekanligini, tarbiya masalasida befarqliq qilinsa alal oqibat bu jamiyat falokatiga sabab bo‘lishini uqtiradi. Avloniy asarlaridan foydalanish o‘qish darslarini yanada mazmunli va ta’sirchan qilishga yordam beradi. Ularning sodda va tushunarli tili boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos bo‘lib, dars jarayonida muhokamalar, sahna ko‘rinishlari va qiziqarli topshiriqlar orqali o‘quvchilarining faolligini oshiradi.

Abdulla Avloniy asarlari o‘qish darsliklarining tarkibiy qismi sifatida o‘quvchilarining nafaqat savodxonligini oshirishga, balki ularning axloqiy tarbiyasiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning ijodi hozirgi ta’lim tizimida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni bilimli va vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. _ Kitob mollari yetib borish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va
2. Prezident Farmoni . “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 13 yanvar – 9-son.
3. Mirziyaev Sh. M. _ Milliy taraqqiyot davom etdi Toshkent - 2017, " O‘zbekiston
4. 2-sinf o‘qish darsligi Toshkent 2023
5. O‘quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi / B.Xodjayev, M.Maxmudova – Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2016.
6. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o‘quv qo‘llanma Umarov B., Axmedova M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ; O‘zbekiston davlat jahon tillari un-ti : - T. Chashma Print, 2013.
7. Abdulla Avloniy . Turk gulistoni yoki axloq. T., 2008.